



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



CONFERENCES.UZ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7506734>

OROLBO‘YI EKOTIZIMLARIGA EKOLOGIK OFATLAR TA‘SIRI VA ULARNING OLDINI OLISH

Xayitbayev Abror Ismoilovich

o‘qituvchi

Urganch davlat universiteti

e-mail: xayitbayev.abror.1991@mail.ru

Atamuratov Shoxrux Reyimbergan o‘g‘li

talaba

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada Orolbo‘yi hududlari ekotizimlaridagi ekologik ofatlar, ularning barqaror rivojlanishiga salbiy ta‘sir qiluvchi omillar va ularning ekologik, ijtimoiy-ekologik oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan ayrim tadbir va mulohazalar bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: baliqchilik xo‘jaligi, chang-tuzli aerosol, delta ekotizimi, qirg‘oq dambasi, vetlandlar.

THE EFFECT OF ECOLOGICAL DISASTERS ON THE ECOSYSTEM OF UZBEKISTAN AND THEIR PREVENTION

Xayitbayev Abror

Abstract: The article deals with ecological disasters in the ecosystems of the Aral Sea region, factors that negatively affect their sustainable development and aimed at mitigating their environmental, socio-ecological consequences some events and comments were made.

Key words: fisheries, chan-salt aerosol, delta ecosystem, coastal dam, wetlands.

Hozirgi zamon global ekologik muammolaridan biri – bu Orol dengizining qurishi bo‘lib, uning ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlari mintaqaning barqaror rivojiga hamda genofondi va kelajak avlodiga to‘g‘ridan to‘g‘ri tahdid manbai bo‘lib kelmoqda. Ushbu masalani ilmiy jihatdan o‘rganish orqali yuzaga kelgan ekologik va ijtimoiy-ekologik tanglikni yumshatish, kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston ekologiyasi deganda ko‘pchilikning ko‘z oldiga, albatta, Orol dengizi va uning atrofida ro‘y berayotgan ekologik tang vaziyat keladi. Ushbu

muammoga respublika mustaqillikka erishgandan buyon davlat rahbari miqyosida e'tibor berilib kelinmoqda.

Orol dengizi mintaqa iqtisodiyotining rivoji, sanoati (ishlab chiqarish tarmog'i), aholining ish bilan bandligi va barqaror ijtimoiy infratuzilmaning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Avvallari ushbu dengiz baliq yetishtirish bo'yicha dunyodagi ilg'or maskanlardan biri hisoblangan bo'lib, Orolbo'yi havzasidagi yillik baliq ovlash hajmi 30-35 ming tonnani tashkil qilgan. Orol dengizi qirg'oqlarida yashovchi aholining 80 foizdan ko'prog'i baliq va baliq mahsulotlarini ovlash, ularni qayta ishlash, mahsulot tayyorlash va yetkazish bilan band bo'lgan. Amudaryo va Sirdaryo deltalarining unumdor yerlari hamda mahsuldor yaylovlari 100 mingdan ziyod odamlarning chorvachilik, parrandachilik bilan mashg'ul bo'lishini hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishini ta'minlagan [2].

Shuningdek, Orol dengizining iqlimni tartibga soluvchi havza hamda butun mintaqada ob-havoning keskin o'zgarishini kamaytirishdagi vazifasi aholi turmushi sharoitlariga, qishloq xo'jaligi va ekologik holatga ijobiy ta'sir ko'rsatardi. Orol dengizi akvatoriyasi ustida qish vaqtida mintaqaga kirib keladigan ulkan havo oqimi iliqlashgan, yozgi vaqtda esa sovuqlashgan [2].

Dunyo miqyosida xalqaro tadqiqotchilar olib borgan izlanishlar natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, Orol dengizi va Kaspiy o'rtasida geologik bog'liqlik aniqlangan. Jumladan, tadqiqot olib borgan sobiq sovet olimlaridan iborat guruh shunday xulosaga kelgan: yani dengiz atrofida ko'plab yadro qurollari sinovlari yer po'stiga ta'sir qilib, uning tagida geologik yoriqlar hosil qilgan va dengiz suvlari Kaspiy tomonga oqa boshlagan. Keltirilgan nazariyaga isbot tariqasida ushbu olimlar mahalliy odamlar keltirgan guvohlik so'zlarini keltirib o'tishgan. Afsuski, keltirilgan barcha nazariya va taxminlarga qaramasdan Orol dengizi qurib bitdi. Endilikda uning g'arbiy qismidagi, ya'ni Ustyurt platosi sharqiy chinklari qirg'og'idagi torgina qismi saqlanib qolgan, xolos.

Orol va Orolbo'yi ekologik, ijtimoiy-ekologik muammosini bartaraf qilish uchun turlicha yechimlar taklif qilingan. Shulardan biri, 2003–2005-yillarda Qozog'iston Respublikasi tomonidan amalga oshirilgan: Kichik va Katta Orolni ajratib turuvchi damba qurilib, endi Sirdaryodan oqib kelayotgan suv Kichik Orolga to'plana boshladi. Natijada suv sathi oshib, sho'rlik kamaydi. Biroq, bu Orolning janubiy qismi zarariga bo'lmoqda.

Endilikda, Orol sathini ma'lum bir mutloq balandlikda saqlab qolish uchun Orolga har yili kamida 20 kub km suv quyilib turishi kerak. Biroq, daryolarning 90% suvi sug'orish uchun sarf bo'layotgan bir paytda, buncha ko'p miqdordagi suv massasini to'plash ehtimoli juda kam.

Shu sababli, asosiy vazifa Orolning qurigan qismlarida yashil qoplamali kserofit o'simliklarni o'stirib ko'paytirish orqali chang aralash tuz massalarining havoga ko'tarilishini kamaytirish, ushbu hududda yashovchi aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash hamda ularga sifatli dori-darmon va tibbiy xizmatlar ko'rsatishdan iborat.

Biz shunday kichik ko'llar barpo qilishimiz kerakki, ilmiy tilda buni "vetland"lar deymiz, ya'ni sun'iy kichik ko'llar barpo etishning afzalliklari shundan iboratki, birinchidan, ushbu ko'llar atrofida qulay va mo'tadil mikroiklim vujudga keladi; ikkinchidan, uning atrofida to'qay landshafti shakllanadi va o'z-o'zidan shu landshaftga xos flora hamda fauna dunyosi rivojlanadi; uchinchidan, to'qay landshaftlarida o'suvchi daraxtlar uchib kelayotgan chang-tuz aerzollari uchun ihotasini o'taydi. Bundan tashqari, ushbu sa'y-harakatlar natijasida mintaqada hududida yoz davrida suv havzalarida, avvalo, baliqchilikni rivojlantirish, shuningdek, yaylov va pichanzorlarga suv yuborish, pirovard natijada esa chorvachilik uchun yem-xashak bazasini yaratish imkonini beradi.

Orol inqirozi ta'sir ko'rsatgan hududlarda, ayniqsa, uning yangi qurigan qismlarida saksovlzorlar tashkil etishdan iborat fitomeliorativ chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich davom ettirish lozim. Saksovlzorlar barpo etish orqali tuproq yemirilishi, ya'ni, tuproq eroziyasining oldi olinib, chang-tuz zarralarining havoga ko'tarilish jarayoni oldingisiga qaraganda ancha kamayadi.

Quyida keltirib o'tilgan vazifalar kechiktirib bo'lmasligi bilan bir qatorda, Orolbo'yi hududida ekologik muvozanatni tiklash orqali respublikamiz aholi manzilgohlarida ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi.– T.:O'qituvchi, 2002. – 282-283 betlar.
2. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. – T.:O'qituvchi, 1997. – 37-43 betlar.